



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 366 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймуратова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlarini	203
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlio'Imasoy Naym qizi	
Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari	214
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida	219
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich	
Moliyaviy regulatsiya va fiskal siyosat orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari	225
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
The importance of foreign investments in the economic development of the country	229
Rahmonov Samandar, K.J. Matkarimov	
Nostandart bandlik tushunchasi va uning mintaqani rivojlantirishdagi ahamiyati	235
Abdikarimova Zuxra Baxramovna, Saida Eshchanova	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	240
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o'g'li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich	
Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotni yo'lga qo'yishdagi muammolar va ularga innovatsion yondashuv	244
Ravshanbekova Madina Davlatboy qizi	
O'zbekiston xalqaro bozorga integratsiyalashuv jarayonida qishloq xo'jaligi ayrim mahsulotlarini yetishtirishning o'ziga xos jihatlari	247
O'razboyeva Farangiz Quadrat qizi, Ametov Quvandik Mamatjanovich	
The role of profitability in evaluating enterprise performance	251
Kholiqulov A.N., Khlomurodova S.A.	



Yaponiyada demografik muammo va uning iqtisodiyotga ta'siri.....	256
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tajribalari.....	262
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna, Otamuratova Dilnoza Dilmurod qizi	
Sanoat korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarining tahlili.....	265
Islomov Shuhrat Marufjonovich, Qarshiev Avazbek Sa'dullaevich	
Talabalarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda Pareto qoidasini tadbqiq etishning muhim xususiyatlari	272
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, Asqarov Abrorjon Xayitmirzayevich	
Sanoat siyosatining nazariy va empirik asoslari	277
Sobirxo'jayev Xadyatillo, Hashimov P.Z.	
Yashil iqtisodiyot sharoitida energiya samaradorligining milliy iqtisodiyotga ta'siri.....	284
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Yashil biznes: Muqarrar kelajak va yangi imkoniyatlar.....	290
Shirinxon Axmadova, Xaydarov Nomozali Xolmirzayevich	
Katta ma'lumotlar tahlili va ularni biznes qarorlarini qabul qilishda samarali foydalanish.....	296
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Startaplar uchun marketing strategiyalari: Bozor tahlilidan brendgacha	301
Qodirov Sardor Qosimjonovich	
O'zbekiston sharoitida zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarishda yashil iqtisodiyotning o'rni	305
Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiyeovich	
Suv resurslari ustidan nazorat va mintaqaviy siyosat: O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqlim ziddiyatlari	311
Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li, Egamberdiyev Muzaffar	
Tijorat banklarda zamonaviy ekotizim xizmatlarini takomillashtirish.....	320
Abduvaliyev Mirjalol Ikrom o'g'li, Po'latov Laziz Akmal o'g'li, Axmedov A.S	
Особенности кредитной поддержки субъектов предпринимательства в сфере туризма и факторы препятствующие его развитию.....	327
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовевна	
O'zbekistonda "Yashil iqtisodiyot" ga o'tishda kichik va o'rta biznesning o'rni va imkoniyatlari	333
Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish.....	338
Qurbonov Xusrav Xudoyberdi o'g'li, Allayarov Suxrob Rustamovich	
Bank xizmatlari orqali korxona va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish	343
Abdilxatov Ulug'bek Abdulquddus o'g'li, Bazarova Gulnora Gulamovna	
Balance of payments indicators and their impact on the stability of the national currency	349
Ismoilova Intizor Mansurbek qizi, Berdikulova Sevinch Toxir kizi	
Dunyodagi eng muvaffaqiyatli insonlar va ularning insoniyat hayotiga olib kirgan buyuk kashfiyotlari	353
Charosxon Shakirova Akmal qizi, Xolmurotova Diyoraxon	
Interaktiv o'qitish orqali moliyaviy bilimlarni o'zlashtirish: tajriba va natijalar.....	356
Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, Askarov Abrorjon Xayitmirzayevich	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar jalb etishning ahamiyati	361
Ochildiyev Bexruz To'liqin o'g'li, Safarov Alisher	



YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALAR JALB ETISHNING AHAMIYATI

Ochildiyev Bexruz To'liqin o'g'li

Samarqand davlat universiteti Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi talabasi
Elektron pochta: ochildiyevbexruzbek@gmail.com

Ilmiy rahbari:

Safarov Alisher

Moliya va bank ishi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni, bu yo'lda duch kelinayotgan muammolar va investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati keng tahlil etilgan. Yashil iqtisodiyot ekologik barqarorlik, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni birlashtiruvchi zamonaviy iqtisodiy model sifatida taqdim etilgan. Maqolada yashil iqtisodiyotga o'tishda investitsiyalar, ayniqsa qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekologik texnologiyalar, innovatsiyalar va sog'liqni saqlash sohalarida muhim o'rin egallashi ta'kidlangan. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlar va qaror qabul qilish jarayoni asosida O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaralari ko'rib chiqilgan. Yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlanishi, ekologik xavfsizligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, investitsiyalar, atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlik, iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari, suv resurslari, ekologik soliq tizimi, xalqaro hamkorlik, texnologiyalarni rivojlantirish, iqlim o'zgarishi, innovatsiyalar.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of Uzbekistan's transition to a green economy, the challenges it faces along the way, and the importance of attracting investment. The green economy is presented as a modern economic model that combines environmental sustainability, economic growth, and social well-being. The article emphasizes that investments, especially in renewable energy sources, environmental technologies, innovations, and healthcare, play an important role in the transition to a green economy. The study examines the economic, environmental, and social impacts of attracting investment to a green economy in Uzbekistan based on a literature review, statistical data, and decision-making processes. It is argued that the transition to a green economy is an important factor in ensuring Uzbekistan's long-term development, environmental safety, and social well-being.

Key words: green economy, investments, environmental protection, efficient use of natural resources, environmental sustainability, economic growth, new jobs, water resources, environmental tax system, international cooperation, technology development, climate change, innovation.

Аннотация: В статье представлен комплексный анализ перехода Узбекистана к «зелёной» экономике, проблем, с которыми он сталкивается на этом пути, и важности привлечения инвестиций. «Зелёная» экономика представлена как современная экономическая модель, сочетающая в себе экологическую устойчивость, экономический рост и социальное благополучие. В статье подчёркивается, что инвестиции, особенно в возобновляемые источники энергии, экологические технологии, инновации и здравоохранение, играют важную роль в переходе к «зелёной» экономике. В исследовании рассматриваются экономические, экологические и социальные последствия привлечения инвестиций в «зелёную» экономику в Узбекистане на основе обзора литературы, статистических данных и процессов принятия решений. Утверждается, что переход к «зелёной» экономике является важным фактором обеспечения долгосрочного развития Узбекистана, экологической безопасности и социального благополучия.

Ключевые слова: «зелёная» экономика, инвестиции, охрана окружающей среды, эффективное использование природных ресурсов, экологическая устойчивость, экономический рост, новые рабочие места, водные ресурсы, система экологического налогообложения, международное сотрудничество, развитие технологий, изменение климата, инновации.



KIRISH

Yashil iqtisodiyot, atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sishni birlashtiruvchi yangi iqtisodiy model sifatida dunyo miqyosida katta ahamiyat kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga ham yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi uchun investitsiyalarni jalb qilish juda muhimdir. Yashil iqtisodiyot — bu resurslarni to'g'ri va samarali boshqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashni nazarda tutadi. Biroq bu jarayon uchun investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali boshqarish zarur.

O'zbekistonda tabiiy resurslarga yuqori talab, atrof-muhitdagi o'zgarishlar, ekologik xavf-xatarlar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar yashil iqtisodiyotga o'tishni murakkablashtiradi. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish muhim, chunki ular barqaror amaliyotga o'tishni kuchaytiradi, ekologik xavflarni kamaytiradi va iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Yashil investitsiyalar innovatsiyalarni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi hamda iqlim o'zgarishi va resurslarning kamayishi bilan kurashishda qo'shimcha imkoniyatlar beradi. Ular, shuningdek, atrof-muhitga nisbatan ongliroq biznes amaliyotlarini rivojlantirishga xizmat qiladi va yanada barqaror global iqtisodiyotga hissa qo'shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning asosiy nazariy va amaliy asoslari ko'plab xalqaro ilmiy ishlarda chuqur tahlil qilingan. United Nations Environment Programme tomonidan tayyorlangan "Towards a Green Economy" hisobotida yashil iqtisodiy model nafaqat ekologik xavfsizlikni, balki yangi ish o'rinlari va texnologik innovatsiyalarni ham yaratishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchilar Edward Barbier va Pushpam Kumar o'z ishlanmalarida yashil iqtisodiyot konsepsiyasini barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida ko'rsatib, investitsiya oqimlarini to'g'ri yo'naltirish mamlakatlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashini isbotlaydilar.

So'nggi yillarda energiya o'tishi va yashil texnologiyalarga yo'naltirilayotgan sarmoyalar hajmi keskin ortib borayotganini xalqaro tahlillar ko'rsatmoqda. International Renewable Energy Agency (IRENA) va Climate Policy Initiative ma'lumotlariga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga kiritilayotgan investitsiyalar global miqyosda rekord darajaga yetdi, biroq iqlim maqsadlariga erishish uchun ularni yanada oshirish talab qilinadi. IRENA ekspertlari Francesco La Camera va Rabia Ferroukhi energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi texnologiyalarni moliyalashtirish jarayonlarini tahlil qilib, davlat siyosati bilan moslashtirilgan investitsiya mexanizmlari barqaror natijalar berishini ta'kidlaydilar.

Iqlim o'zgarishining iqtisodiy oqibatlari va ularni kamaytirish xarajatlari bo'yicha chuqur tahlillar Nicholas Stern tomonidan amalga oshirilgan. Stern Review'da qayd etilishicha, hozirgi davrda amalga oshirilayotgan yashil investitsiyalar uzoq muddatli zararlarni oldini olish nuqtayi nazaridan iqtisodiy jihatdan foydaliroqdir. Bu yondashuv yashil iqtisodiyotga o'tish uchun moliyalashtirishni nafaqat ekologik majburiyat, balki makroiqtisodiy zarurat sifatida asoslaydi. Sternning xulosalariga ko'ra, vaqtida amalga oshirilmagan choralar keyinchalik davlat byudjeti va xususiy sektor uchun ancha katta yo'qotishlarga olib keladi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan "Inclusive Green Growth" konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlilchilar Marianne Fay va Stephane Hallegatte ushbu asarda yashil iqtisodiy transformatsiya uchun davlat mablag'lari, xalqaro moliyaviy institutlar kreditlari va grantlari, xususiy sektor sarmoyalari hamda yashil obligatsiyalarni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ularning fikricha, investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun moliyaviy oqimlar bilan birga institutsional islohotlar ham joriy etilishi kerak.

Xususiy sektorni jalb etish masalasida adabiyotlar bir ovozdan regulativ barqarorlik va aniq rentabellik mezonlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Moliyaviy tahlilchi Sean Kidney va iqtisodchi Dirk Schoenmaker yashil obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar bozor ishtirokchilari uchun xavflarni kamaytiruvchi samarali mexanizm ekanligini qayd etadilar. Shu bilan birga, investitsiya loyihalarida bankolikni oshirish, kredit kafolatlarini ta'minlash va soliq imtiyozlarini joriy etish hukumat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida ko'rilmogda.

Hududiy va milliy darajadagi qo'llanmalar ham adabiyotlarda keng yoritilgan. World Bank tahlillarida O'zbekiston singari rivojlanayotgan davlatlar uchun soliq imtiyozlari, yashil kredit kafolatlari va xalqaro iqlim fondlari bilan hamkorlik qilish asosiy mexanizmlar sifatida belgilangan. Tadqiqotchilar Arunabha Ghosh va Ulrich Volz milliy moliyaviy institutlarni yashil loyihalarga moslashtirish hamda texnologik transferni rag'batlantirishni zaruriy shart deb hisoblaydilar. Bu yondashuv nafaqat sarmoya jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi, balki mahalliy mehnat bozorini yangi talablar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlarda aniqlangan bo'shliqlar ham e'tiborga loyiqdir. Bir qator mualliflar, jumladan Jakob Skovgaard va Peter Newell milliy darajadagi statistik ma'lumotlarning yetarli emasligi yashil investitsiyalarning real ta'sirini



baholashda jiddiy to'siq ekanini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, investitsiyalarning ijtimoiy adolat va bandlikka ta'siri bo'yicha chuqur empirik tadqiqotlar yetarli emasligi, shuningdek kafolat mexanizmlarining samaradorligini o'lchashga doir amaliy tajribalar cheklanganligi qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda, global ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlar tahlillari yashil iqtisodiyotga investitsiyalar jalb etishning nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Stern, Barbier, Kumar, Fay, Hallegatte va boshqa olimlarning ishlari shuni isbotlaydiki, investitsiyalarni samarali yo'naltirish uchun davlat siyosati, xususiyl sektor ishtiroki va xalqaro moliyaviy mexanizmlar uyg'unligi talab qilinadi. O'zbekiston uchun bu xulosalar strategik jihatdan muhim bo'lib, milliy ma'lumotlar bazasini kengaytirish, xalqaro fondlar bilan hamkorlikni mustahkamlash va mahalliy moliyaviy sektorni yashil loyihalarga moslashtirish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Yashil energetikaga investitsiyalarni jalb etishning ahamiyatini o'rganishda bir nechta tadqiqot metodologiyalaridan foydalanilgan. Ushbu maqolada olib borilgan tadqiqotlar adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlar tahlili va qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish usullari orqali amalga oshirilgan. Tadqiqotning asosiy metodologiyasi sifatida quyidagi yo'nalishlar ko'rib chiqildi: adabiyotlar tahlili orqali yashil energetikaga investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyatini o'rganish maqsadida turli mamlakatlar tajribasi hamda O'zbekistonning energetika siyosati tahlil qilindi. O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirish yo'nalishidagi tashabbuslari hamda ular bilan bog'liq muammolarni o'rganish uchun ilmiy maqolalar va xalqaro hisobotlar tahlil qilindi. Statistik tadqiqotlar va raqamli ma'lumotlar tahlili yordamida O'zbekiston energetika sohasida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalar hajmi, yangi energiya texnologiyalarining iqtisodiy va ekologik natijalari, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan loyihalar va tashabbuslarning samaradorligi o'rganildi. Bu usul orqali qayta tiklanuvchi energiya sektori va yashil energiya infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari hamda kutilayotgan natijalari tahlil qilindi. Qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish usuli orqali O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan ekologik va energetik qarorlar, jumladan, "Yashil iqtisodiyot" strategiyasining amalga oshirilishi va uning ta'siri ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilgan siyosatning energetika sektorida tatbiqi, ularning samaradorligi va mavjud kamchiliklari tahlil qilindi. Bu yondashuv siyosatlarning amaldagi ehtiyojlarga mos kelishini va ularning joriy natijalarini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining dolzarbligi, asosan, ekologik muammolarni hal qilish va iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi. Global iqlim o'zgarishlari va atrof-muhitning ifloslanishi butun dunyo bo'ylab jiddiy tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishi uchun bu jarayonning dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Tabiiy resurslardan, ayniqsa suv va yer resurslaridan samarali foydalanish O'zbekistondagi yashil iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, Aydar-Arnasoy ko'li kabi ekologik inqirozga yuz tutgan hududlar resurslarni boshqarish va barqaror iqtisodiy modelga o'tishni talab qilmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi, shu bilan birga ekologik xavf-xatarlarni kamaytiradi va ijtimoiy farovonlikni oshiradi.

Yashil iqtisodiyotga investitsiyalar jalb etishning afzalliklari:

Ekologik barqarorlikni ta'minlash. Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillaridan biri — tabiiy resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlashdir. Yashil investitsiyalar atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalar, masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash va karbon chiqindilarini kamaytirish orqali ekologik barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Yangi texnologiyalarni rivojlantirish. Yashil iqtisodiyotga investitsiyalar yangi texnologiyalarni rivojlantirish va ekologik toza ishlab chiqarish usullarini joriy etish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish bilan bog'liq investitsiyalar energiya tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon, ayniqsa, energetika va sanoat sohasida katta ahamiyatga ega.

Ish o'rinlari yaratish. Yashil iqtisodiyotga investitsiyalar nafaqat ekologik muammolarni hal etadi, balki yangi ish o'rinlarini yaratishga ham yordam beradi. Ekologik texnologiyalarni rivojlantirish va yashil energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar o'z navbatida yangi ish o'rinlarini ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki yangi ish o'rinlari ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish. Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish atrof-muhitning ifloslanishini kamaytiradi, havoning tozaligini oshiradi va suv resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Bu esa odamlarning salomatligi hamda ijtimoiy farovonligini yaxshilaydi. Yashil iqtisodiyotga o'tish sog'liqni saqlash tizimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



O'zbekistonda yashil energetika sohasiga investitsiyalarni jalb qilish uchun tashabbuslar va loyihalar:

Yashil obligatsiyalar va ekologik soliq tizimi. Yashil energetika sohasida investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston hukumati tomonidan yashil obligatsiyalar chiqarish rejalashtirilgan. Ushbu obligatsiyalar orqali quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya jalb qilish mumkin. Shu bilan birga, ekologik soliq tizimi orqali an'anaviy energiya ishlab chiqaruvchi korxonalarning chiqindilarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanishga undash va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni moliyaviy tomondan rag'batlantirish yo'lga qo'yilmoqda.

Xalqaro hamkorlik va donorlar yordamida tashabbuslar. O'zbekiston yashil energetika bo'yicha bir qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Jumladan, BMT, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda qayta tiklanuvchi energiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar doirasida quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, energiya samaradorligini oshirish hamda energiya tizimlarini raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Xususan, Qoraqalpog'iston, Navoiy, Buxoro va Jizzax viloyatlarida xalqaro moliyalashtirish asosida yirik quyosh elektr stansiyalari barpo etilmoqda.

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar va tahlillar quyidagi asosiy natijalarga olib keldi.

Birinchidan, yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritish iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Energiya samaradorligini oshirish, yashil texnologiyalarni joriy etish va resurslardan samarali foydalanish orqali mamlakatning iqtisodiy o'sishi barqaror yo'nalishga ega bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish energiya importini kamaytirishga imkon beradi, bu esa iqtisodiyotning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, yashil iqtisodiyotning ekologik natijalari tahlil qilindi. Yashil investitsiyalar, ayniqsa qayta tiklanadigan energiya manbalariga yo'naltirilgan sarmoyalar, atrof-muhitga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlil davomida qayd etilganidek, quyosh va shamol energiyasining rivojlanishi chiqindilar hajmini kamaytirish va karbon izini qisqartirishda samarali natijalar berdi. Shuningdek, ekologik texnologiyalarni joriy etish havoning ifloslanishini pasaytirgan va suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlagan.

Uchinchidan, yashil iqtisodiyot va ish o'rinlari yaratish masalasi muhim yo'nalishlardan biridir. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni yangi ish o'rinlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Yashil investitsiyalar innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, energetika va qurilish sohaslarida yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish, energiya samaradorligini oshirish va yashil qurilish sohalari O'zbekistonda bandlikni kengaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayon nafaqat texnik mutaxassislar uchun, balki boshqa sohalarda ham yangi mehnat bozorini shakllantiradi.

To'rtinchidan, Yashil iqtisodiyotning ijtimoiy ta'siri ham sezilarli bo'lib, u ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shadi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga qaratilgan investitsiyalar kam ta'minlangan hududlarda ish o'rinlarini yaratib, atrof-muhitni yaxshilash orqali ijtimoiy tenglikni oshiradi. Biroq bu jarayonning samaradorligi uchun ta'lim va malaka oshirish tizimini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, kam ta'minlangan hududlarda yashil texnologiyalarni joriy etish hamda malakali kadrlarni tayyorlash ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, yashil iqtisodiyotga o'tish siyosiy va iqtisodiy to'siqlar bilan bog'liq. O'zbekiston tajribasida mavjud qonunchilik va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi to'liq ta'minlanmagan. Yashil investitsiyalarni jalb etish uchun davlat tomonidan soliq imtiyozlari va subsidiya siyosatini kengaytirish, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash talab etiladi.

Muammolarni hal qilish va yashil investitsiyalar oqimini oshirish uchun bir qator choralar muhimdir. Avvalo, yashil moliyalashtirishni rivojlantirish orqali xususiy kapitalni jalb qilish uchun qulay muhit yaratish zarur. Moliyaviy siyosat, ekologik tartibga solish va iqtisodiy siyosatlarning uyg'unligi ta'minlanishi lozim. Bu borada Osiyo davlatlari ichida Xitoy tajribasi alohida ahamiyatga ega, chunki bu mamlakat 1979-yilda "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi birinchi ekologik qonunni e'lon qilgan va hozirga qadar uni konstitutsiya, 14 ta qonun va 26 ta ma'muriy reglament bilan mustahkamlagan. Bundan tashqari, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun markaziy banklarning iqlim o'zgarishi va atrof-muhit omillarining iqtisodiy ta'sirini to'g'ri baholashi zarur.

Qishloq xo'jaligi sohasida organik mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish atrof-muhitni himoya qilish bilan birga mahalliy aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o'tishni mintaqaviy nuqtai nazardan ko'rib chiqish ham muhim. Har bir viloyatning tabiiy resurslari va iqtisodiy salohiyati inobatga olinishi zarur bo'lib, bu hududiy maxsus strategiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi. Masalan, Toshkent shahrida yashil transport tizimini rivojlantirish havo sifatini yaxshilash, transport vositalaridan chiqadigan zararli gazlarni kamaytirish, elektr transport vositalari va velosiped yo'laklarini kengaytirish orqali ekologiyani muhofaza qilish va aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, aqlli boshqaruv tizimlariga asoslangan infratuzilmalarni rivojlantirish poytaxtda yashil iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi.



Buxoro va Samarqand viloyatlarida esa shamol va quyosh energiyasi ishlab chiqarishni rivojlantirish katta istiqbolga ega. Ushbu hududlarning keng va ochiq landshaftlari qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi va bu mintaqalarda yashil energetika infratuzilmasini kengaytirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida investitsiyalarni jalb etish hal qiluvchi omillardan biridir. Bu jarayon nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Chet el sarmoyalari, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin. Shu bois, yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyaviy siyosat mamlakatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik juda muhim. O'zbekiston hukumati ushbu o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy mexanizmlar va rag'batlantirish siyosatlarini ishlab chiqishi lozim. Misol uchun, soliq imtiyozlari, grantlar va moliya mablag'lari orqali xususiy kompaniyalarni ekologik loyihalarga sarmoya kiritishga undash mumkin. O'zbekiston hukumati va xalqaro moliyaviy institutlar, masalan, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki bilan birgalikda yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab loyiha va dasturlarni amalga oshirayotgani ko'rinadi.

Xususiy sektor o'z navbatida yangi texnologiyalarni joriy etish va ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini o'zlashtirishga tayyor. Ular, shuningdek, energetika, transport va qishloq xo'jaligida barqaror yechimlarni amalga oshirish orqali davlatning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoniga hissa qo'shishi mumkin.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda texnologiyalar va innovatsiyalar yetakchi rol o'ynaydi. Raqamli transformatsiya va aqlli texnologiyalarning rivojlanishi orqali ekologik tizimlarni boshqarish yanada samarali bo'ladi. Masalan, aqlli suv ta'minoti tizimlari orqali suvni tejash va tarmoqlarni samarali boshqarish imkoniyatlari yaratiladi. Energiya samaradorligini oshiruvchi tizimlar va yashil qurilish texnologiyalari orqali yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni tezlashadi.

Shuningdek, qayta ishlanadigan qurilish materiallari va shaharlarni yashillash kabi ekologik inshootlarni yaratish bo'yicha innovatsiyalar ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston shaharlarida ekologik qurilish tizimlarini rivojlantirish, bug'doy va paxta plantatsiyalarining ekologik xavfsizligini ta'minlash, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa texnologiyalar yordamida yashil iqtisodiyotni shakllantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The Economy of Green Investment in Various Projects: The Experience of Countries by Zina Arsakhanova. Kadyrov Chechen State University, Sheripova Street, 32, 364024, Grozny, Russia
2. Jahon Banki (2020). Yashil O'sish: Barqaror Taraqqiyotning Yangi Yo'li. Jahon Banki.
3. Gulnora T., & Jumaev K. (2021). O'zbekiston Energetika Sektoridagi Yashil Transformatsiya: Muammolar va Perspektivalar. Toshkent: O'zbekiston Davlat Iqtisodiyot Universiteti nashri.
4. Zarifov Sh., & Rakhimov D. (2022). Markaziy Osiyoda Barqaror Energetika va Ekologik Siyosatlar. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
5. Nicholas Stern. The Economics of Climate Change: The Stern Review. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 692 p.
6. Edward B. Barbier. A Global Green New Deal: Rethinking the Economic Recovery. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 262 p.
7. Pushpam Kumar (ed.). The Economics of Ecosystems and Biodiversity: Ecological and Economic Foundations. – London: Earthscan, 2012. – 410 p.
8. United Nations Environment Programme. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi: UNEP, 2011. – 630 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>